

**TOVUSH O'ZGARISHI VA TOVUSH TAKRORI BILAN
HOSIL BO'LADIGAN KONNOTATIV MA'NOLAR**

*Haydarov Anvar Askarovich,
Filologiya fanlari nomzodi, professor
Buxoro Davlat Universiteti*

*Ro'ziyeva Nilufar Kamtarovna,
Buxoro Davlat Universiteti II bosqich magistrant*

Abstract. *This article aims to reveal the phonetic phenomena that occur in words during the speech process, i.e., the connotative meanings formed when sound changes and sound repetitions are observed, and their classification. In order to prove the phenomenon, examples from English and Uzbek works of art are presented.*

Key words: *assimilation, dissimilation, reduction, prosthesis, metathesis, elision, apakopa, syncope, epinthesis, synharmonism, phonostylistic task, melodic effect.*

Аннотация. *В данной статье ставится задача выявить фонетические явления, возникающие в словах в процессе речевого процесса, т. е. коннотативные значения, образующиеся при наблюдении звуковых изменений и звуковых повторов, и их классификацию. Для доказательства феномена представлены примеры из английских и узбекских произведений искусства.*

Ключевые слова: *ассимиляция, диссимиляция, редукция, протез, метатезис, элизия, апакоба, эпинтез, сингармонизм, фоностилистическая задача, мелодический эффект*

Annotatsiya. *Ushbu maqola nutq jarayonida so'zlarda sodir bo'ladigan fonetik hodisalar, ya'ni, tovush o'zgarishi hamda tovush takrori kuzatilganda hosil bo'ladigan konnotativ ma'nolar hamda ularning tasnifini ochib berishga qaratilgan. Hodisani dalillash maqsadida ingliz va o'zbek badiiy asarlaridan mavzuga oid misollar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *assimilyatsiya, dissimilyatsiya, reduksiya, proteza, metateza, eliziya, apakopa, sinkopa, epinteza, singarmonizm, fonostilistik vazifa, melodik ta'sir.*

Fonetik qiyofasida tovush o'zgarishlari ro'y bergan til birliklaridagi konnotativ ma'nolar va ularning turli ko'rinishlarining tadqiqi bugungi kunda tilshunoslikning dolzarb muammolaridan biridir. Nutq jarayonida so'zdagi tovushlar turli o'zgarishlarga uchrashi: biri ikkinchisi tomonidan moslashtirilishi, ayrim tovushlarning boshqacha shakl olishi va tushib qolishi ba'zan so'zda yangi tovush paydo bo'lishiga fonetik hodisalar deyiladi. Bunday hodisalar assimilyatsiya, dissimilyatsiya, reduksiya, proteza, metateza, eliziya, apakopa, sinkopa, epinteza, singarmonizm kabi qator atamalar bilan nomlanadi.¹

Turli ko'rinishdagi bu hodisalarning mohiyati, va kelib chiqish sabablari har xil. Ular asosan nutqda ixchamlikka intilish, bo'g'indagi unliga urg'uning tushishi yoki uning urg'usiz bo'lishi, shoshilib

¹ Решетов В.В. "Основы фонетики и грамматики узбекского языка. Изд. Второе. Т.: Учитель, 1965. – с-45.

talaffuz qilish yoki sheva ta'siri, boshqa chet tillardan o'zlashgan so'zlar talaffuzidagi qiyinchiliklar bunga sabab bo'ladi.

Proteza - ma'lum fonetik sabablarga ko'ra so'zning boshida tovush orttirilishidir.² Protezada so'z boshida unli tovush orttiriladi. Ayniqsa, "r" onemasi bilan boshlanuvchi so'zlarda: *rus-urus, stol – ustal, stakan – istakan* kabi.

Fonetik qiyoffasi o'zgargan so'zlarning yana bir ko'rinishi apakopa. Apakopa – so'z oxiridagi tovush yoki tovushlarning tushib qolish hodisasi ham jonli so'zlashuv nutqini real aks ettirish uchun badiiy tasvirda muqim vazifa bajaradi: *kel – ke; go'sht – go'sh; eshit – eshi* kabi.

Nutqiy tejamkorlik va personaj nutqini individuallashtirish, she'riy qofiya talabi tinglovchida hissiy ta'sirchanlik hosil qilishda tovush tushishi, tovush orttirilishi, o'zaro o'rin almashtirish, so'z bo'g'inlarining qisqartirilishi kabi hodisalar muhim fonostilistik vazifani bajaradi. Shunday fonostilistik vazifani bajarishda tovush takrorining ham ahamiyati benihoya kattadir. Bir xil yoki bir biroviga yaqin tovushlarning takrorlanishi fonetik hodisadir.

Tovush takrori ayniqsa, so'zlovchi yoki tinglovchining diqqatini tasvir obyektiga ko'proq jalb etish uchun ishlatiladi. Takrorning asosiy vaziasi nutqni ta'sirchan qilish, fikrni oydinlashtirish va unga tinglovchi diqqatini tortishdir. Takror va uning stilistik funksiyasi haqida professor A.Mamajon fikr yuritib, uning fonetik, leksik, morfologik, sintaktik tarzidagi ko'rinishlari borligini ko'rsatdi.³

Alliteratsiya – fonetik – stilistik vosita bo'lib, nutqqa melodik ta'sir beradi. U asosan birin-ketinlikdagi so'zlar boshida turgan ma'lum undosh tovushlarning takrori bo'lib hisoblanadi. Masalan:

The possessive instinct never stands still (s);

Secret and self-contained and solitary as an oyster.(s) (Ch.Dickens)

Alliteratsiya uslubiy ravonlik, so'zlarning ohangdorligini vujudga keltiradi. U mustaqil ma'noga ega emas, uning vazifasi tovushga ta'sir etishdir. Alliteratsiya she'riy misralar boshida kelib, tovushlar uyg'unligini hosil qiladi.

Ingliz tilida:

To lend our hearts and spirits wholly,

To the music obmild minded melancholy

To muse and blood the live, again, in memory (Tennyson)

O'zbek tilida:

Siz dilkash, dilkusho, dilafro'z

Biz dilshod, dilovar, dilbasta

Siz dilkash, dilnavoz va dilso'z

Biz dilxun, dilafgor, dilxatto.

Shuningdek, alliteratsiya xalq maqollarida, og'zaki so'zlashuv uslubida muhim fonostilistik vosita bo'lib xizmat qiladi.

Alliteratsiyada nutq tovushlari ma'lum bir o'rinda, ma'lum bir holatda takrorlanib kelishi bilan hosil bo'lgan konnotativ ma'no asosiy ma'noga ta'sir etadi. Tovush va undagi qo'shimcha ma'nolar doimo dialektik birliklar hosil qiladi. Bu dialektik birlik natijasida hosil bo'lgan konnotativ ma'no nutq jarayonida so'zlovchining emotsional holatini ifodalash uchun ishlatiladi. Alliterativ tovush takrori so'zdagi leksik ma'no ustiga qo'shimcha mazmuniy qavat hosil qiladi.

² Hojiyev A. "Lingvistik terminlarning izohli lug'ati" T.: 1985. 68-b

³ Mamajonov A. "Qo'shma gap stilistikasi" T.: Fan 1990 18-24-b

INTEGRATION OF PRAGMALINGUISTICS, FUNCTIONAL TRANSLATION STUDIES AND LANGUAGE TEACHING PROCESSES

Anafora. Parallel tuzilgan nutq paychalari boshida aynan bir elementning takrorlanishidan iborat stilistik figuradir.⁴ Ushbu stilistik figuradan his-hayajon, ko'tarinki ruh bilan aytiladigan nutq shakllarini yaratish uchun foydalaniladi.

Ingliz tilida:

For want of a shoe, the horse was lost,

For want of a horse, the rider was lost,

For want of a rider, the battle was lost.

O'zbek tilida:

Qani qizlar, qani o'rtoqlar,

Qani ko'klam, qani go'zal yor?

Qani gullar, qani bulbullar?

Har ikkala tilda keltirilgan she'riy parchadagi anafolar takror asosiga qurilgan bo'lib, o'quvchi va tinglovchida turli emotsiyalarni uyg'otadigan ifoda vositasi bo'li xizamt qiladi.

Xulosa qilganda, tovush takrori asosida yaratilgan asarlarni o'qish o'quvchini zeriktirmaydi. Fonostilistik jihatdan esa nutqda tilning tovush va mazmun yaxlitligi asosida ma'lum bir syujet yaratilganligi ahamiyatlidir. Shunday qilib, o'rni bilan ishlatilgan fonetik takrorning turli ko'rinishlari badiiy tasvirida va so'zlashuv nutqida muhim lingvopoetik hodisa bo'lib, musiqiylik, ritm va ohangni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Решетов В.В. “Основы фонетики и грамматики узбекского языка. Изд. Второе. Т.: Учитель, 1965. – с-45.
2. Hojiyev A. “Lingvistik terminlarning izohli lug'ati” Т.: 1985. 68-b
3. Mamajonov A. “Qo'shma gap stilistikasi” Т.: Fan 1990 18-24-b
4. Словарь литературоведческих терминов. – М: 1974, -с-89.
5. Mirzo Makhmudovich Tursunov. (2022). ANALYSIS OF SOME ENGLISH IDIOMS CONTAINING POPULAR PROPER NAMES. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 5, 62–67. Retrieved from <http://ejird.journalspark.org/index.php/ejird/article/view/98>
6. Makhmudovich, T. M. ., & O'rinbekovna, U. M. . (2022). COMPARATIVE ANALYSIS OF SOMATIC PHRASEOLOGY IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. IJTIMOYIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 46–49. Retrieved from <http://sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/1154>

⁴ Словарь литературоведческих терминов. – М: 1974, -с-89.